

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdumurodov Abduhamid Abdusaid o'g'li

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotasiya. *Ushbu maqolada milliy qadriyatlarning avloddan avlodga davomiyligini ta'minlashda oilaning o'rni, oila ma'naviyatini yuksaltirishning sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati hamda oilaviy tarbiyaning pedagogik imkoniyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, milliy g'urur, muhabbat, oila, vatanparvarlik, sadoqat, iftixor, tarbiya, baxt, urf-odat, an'ana, qadriyat.*

Bugungi globallashuv va axborot makoni jadal rivojlanayotgan sharoitda yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, milliy o'zlikni anglash va milliy-madaniy identifikatsiya tuyg'usini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish hamda jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini yuksaltirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va ma'ruzalarida inson baxt-saodatining mazmuni, avvalo, oila farovonligi va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab keladi. Darhaqiqat, insonning oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitda shakllanishi uning keyingi ijtimoiy hayoti va shaxsiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri sifatida shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishlarini mujassamlashtiradi. Oilaviy munosabatlarning mazmuni va xarakteri unda tarbiyalanayotgan shaxslarning individual-psixologik, ma'naviy-axloqiy xususiyatlari hamda o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Shu jihatdan, oilaning bola shaxsiga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'siri o'ziga xos va individual xarakterga ega bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorining shakllanishida muhim omil vazifasini bajaradi. Bola, avvalo, oila muhitida ota-onasi va boshqa yaqinlarining xatti-harakatlari, o'zaro munosabatlari, muomala madaniyati hamda hayotiy faoliyatini kuzatish va ularga taqlid qilish orqali dastlabki ijtimoiy tajribani egallaydi. Aynan oilaviy tarbiya jarayonida unda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va adolat, burch va mas'uliyat, Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat kabi ma'naviy-axloqiy tushunchalar shakllana boshlaydi. Shu bilan birga, bola atrof-muhitni anglash, ijtimoiy voqelikni baholash va unga munosabat bildirish jarayonida asta-sekin o'zini mustaqil faoliyat subyekti sifatida anglaydi. Demak, oiladagi ma'naviy-axloqiy muhit va tarbiyaviy munosabatlar yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishi, milliy o'zligini anglashi hamda jamiyatda munosib o'rin egallashida muhim pedagogik va ijtimoiy omil hisoblanadi. Oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi. Ana shu boisdan bola hissiyotini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi, agar oilada o'zaro hurmat va ishonch bilan birga, yaxshi kayfiyat asosidagi sog'lom muhit qaror topgan bo'lsa, bu bola ruhiyatiga, uning hissiyotiga ijobiy ta'sir etishi tabiiydir. Oilaviy turmush jarayonida bolaning kundalik hayot va maishiy faoliyatda faol ishtirok etishi uning

axloqiy tarbiyasini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Chunki bolaning hayot faoliyatining asosiy qismi oila muhitida kechadi va aynan shu muhitda u oila a'zolari bilan muloqotga kirishish, o'zaro hurmat, hamjihatlik, mas'uliyat, mehnatsevarlik hamda muomala madaniyati kabi ijtimoiy va axloqiy ko'nikmalarni egallaydi. Oila a'zolari o'rtasidagi sog'lom ma'naviy-axloqiy munosabatlar bolaning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy tajribani o'zlashtirishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning ma'naviy-axloqiy saviyasi va shaxsiy namunasining yuqoriligi farzand tarbiyasiga mas'uliyatli yondashuvni ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Har bir ota-ona o'zida shakllangan ijobiy ma'naviy-axloqiy fazilatlarni farzandida ham ko'rishni istaydi. Shu sababli oilada milliy madaniyat, urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, ularni yosh avlod ongiga singdirish hamda avlodlar davomiyligini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Oilaviy tarbiyaning samaradorligi, avvalo, ota-onalarning jamiyat tomonidan oila va yosh avlod tarbiyasiga qo'yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablarni anglab yetishi, farzand tarbiyasiga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi. Axloqiy tarbiya jarayonida bolaning yoshi, individual-psixologik xususiyatlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, shuningdek, milliy tarbiya an'analari va xalq pedagogikasi tajribasidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda ota-onalarning zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining ilg'or yutuqlaridan xabardor bo'lishi, oilaviy tarbiya masalalariga oid bilim va pedagogik kompetensiyalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oila va farzand tarbiyasining ahamiyatiga doir fikrlari alohida e'tiborga loyiq. Davlatimiz rahbari oila muhitining inson kamolotidagi o'rniga alohida urg'u berib, "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat'i nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor berilmasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman", deya ta'kidlagan. Mazkur fikrlar oiladagi ma'naviy muhit, ota-onalarning shaxsiy namunasi va farzand tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyatli munosabati barkamol avlodni shakllantirishning muhim shartlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ha bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman"-degan so'zlari fikrimizning yaqqol isbotidir. Oila va oilaviy tarbiya bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir, chunki jamiyat aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, ruhan boy avlodni tarbiyalashdan manfaatdor. Bunday avlod, eng avvalo, ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lom va mustahkam oilada shakllanib, oilani rivojlantirish va mustahkamlash uchun qilinadigan g'amxo'rlik kelajak avlod taqdiri bilan bog'liqdir. Har qanday jamiyatda ham buyuk davlatning barpo etilishi yoshlar qanday bo'lishlariga, ularning qanday tarbiya olishlariga bog'liq. Taniqli o'zbek pedagogigi Abdulla Avloniy "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" deb yozgan edi. Milliy mafkuraning negizida yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. Mustaqillik ruhida tarbiyalash yoshlarni milliy g'urur, milliy iftixor, milliy ong va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi. Oilada yosh avlodni ota-ona namunasi, oila an'analari, shajarasi, kasb-kori, axloqiy-ma'naviy qadriyatlari asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish vositasida ularni

oilaviy hayotga tayyorlash kutilgan natija beradi. Shunday qilib, Vatan muqaddasligini saqlash, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan xalq, davlat, mamlakat rivojiga ulkan ulush qo‘shish har bir fuqaroning jamiyat, kelajak avlod oldidagi burchidir. Bu burchni halol, pok, fidoyilik va jasorat bilan bajargan insongina haqiqiy vatanparvardir. Yurtboshimiz aytganlaridek: “Shu aziz Vatan barchamizniki, uning baxt-saodati, yorug‘ istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo‘lsa jonni fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir”. Vatan kelajagi, xalqning baxt-saodati uchun milliy g‘ururi yuksak inson kurashadi. Milliy g‘urur esa milliy o‘zlikni anglash bilan bevosita bog‘liqdir. Millat, oila, vatan sha’ni, obro‘-e’tibori, qadr-qimmati, hamiyati, g‘ururi kamsitilgan, toptalgan vaqtda uni qo‘riqlash, himoya etish uchun birlashish, kurashish o‘zlikni anglaganlikning namunasidir. Milliy o‘zlikni anglash, millatning abadiyligini ta’minlovchi, uning moddiy va ma’na-viy boyliklarini, manfaatlarini himoya etish, ko‘z qorachig‘idek asrash, umrboqiyiligini ta’minlashda har bir fuqaroni ongli ravishda jipslashishga, birlashishga da’vat etuvchi, o‘z mazmunida milliy g‘urur, muhabbat, vatanparvarlik, sadoqat, iftixor kabi tus-hunchalarni mujassam etuvchi yuksak tuyg‘udir. Milliy o‘zlikni anglash umuminsoniy qadriyatlarni inkor etish yoki boshqa millat ma’naviy va moddiy boyliklarini hurmat qilmaslik holatidan uzoqroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.
2. Qosimova A. Oila – ijtimoiy tarbiyaning obyekti sifatida // Xalq ta’limi. – 2024.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-iyundagi Yoshlar kuni munosabati bilan yoshlar bilan uchrashuvdagi nutqi. – Toshkent, 2025.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. – Toshkent, 2025.